



BADIIY SAN'ATLARNI O‘QITISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISH

Farxodova Iroda Abdurazzoq qizi,
*Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-bosqich magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207561>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, badiiy san'atlarni o‘qitishda Blum taksonomiyasining ahamiyati va uning asosida topshiriqlarni qanday ishlab chiqish mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada, taksonomiyaning har bir darajasining badiiy san'atlarni o‘qitishdagi roli va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun qanday topshiriqlarni tayyorlash mumkinligi haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Shuningdek, badiiy san'atlarni o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga qaratilgan amaliy tavsiyalar taqdim atiladi.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy san‘at, blum taksonomiyasi, kognitiv, affektiv, psixomotor, iyhom, tashbeh, tazod, tajnis, istiora.*

Kirish. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlarning joriy etilishi, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Blum taksonomiyasi — bu ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilim darajasini va tafakkur qobiliyatlarini tasniflash va sistemalashtirish uchun ishlab chiqilgan nazariy asos. 1956-yilda Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan bu taksonomiya, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida qanday rivojlanishini ko‘rsatadi va ta‘lim maqsadlarini belgilashda yordam beradi. San‘at so‘zi "sun" (yaratmoq) so‘zidan kelib chiqadi va badiiylik yaratish jarayonini anglatadi. Badiiy san'atlar asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq va ta'sirchanroq ifodalanishini ta'minlaydi. Lirik va epik timsollarni yorqinroq gavdalantirish, misralar, bayt va bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi va jozibadorligini ta'minlovchi vositalar badiiy san'atlarning asosiy jihatlaridir. Badiiy san'atlar, o‘z navbatida, insonning ijodiy faoliyatini va uning histuyg‘ularini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Badiiy san'atlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning badiiy ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy san'atlarni o‘qitishda, o‘qituvchilar samarali metodlarni qo‘llashlari zarur, shunda o‘quvchilar o‘z bilimlarini kengaytirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Blum taksonomiyasi o‘qituvchilarga tarbiyalanuvchilar oldiga qo‘yiladigan topshiriqlarni ta‘lim maqsadlariga muvofiq ravishda tasniflash imkonini beradi. Bu tasnif kognitiv, affektiv va psixomotor yo‘nalishlarga asoslanadi. Ta‘limning ushbu uch yo‘nalishini



oddiy qilib “bilaman”, “his qilaman” va “yarataman” soʻzlari bilan ifodalash mumkin. Blum taksonomiyasining asosiy maqsadi pedagoglarda taʼlim maqsadlarining har uchala sohasi boʻyicha motivatsiya uygʻotish va shu orqali taʼlim samaradorligini oshirishdir. Kognitiv yoʻnalishdagi koʻnikma va malakalar bilim, tushuncha va tanqidiy mulohaza yuritishga bogʻliq. Blum taksonomiyasida oʻquv maqsadlarining kognitiv yoʻnalishi oltita darajadan iborat.

Blum taksonomiyasi, oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini tartibga solish uchun samarali vosita boʻlib, taʼlim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Asosiy qism. Blum taksonomiyasini adabiy taʼlim jarayoniga joriy etish masalasi B.Toʻxliyev, G.Xolboyeva, Z.Mirzayeva kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan boʻlsa, matn ustida ishlash yoʻllarini ushbu taksonomiya meʼzonlariga muvofiq tashkil etish masalalari metodistlar Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar tomonidan atroflicha tahlil qilingan.[4:6]. Badiiy sanʼatlarni oʻqitishda Blum taksonomiyasining oltita darajasi — bilish, tushunish, qoʻllash, tahlil qilish, baholash va yaratish — oʻquvchilarning oʻrganish jarayonida qanday rivojlanishini koʻrsatadi. Shunga koʻra, Blum taksonomiyasining darajalari va har bir meʼzonini qoʻllash boʻyicha tavsiyalar keltirib oʻtamiz.

Bilish. Oʻqituvchilar, oʻquvchilarga badiiy sanʼatlarni va ularning asosiy xususiyatlarini tushuntirish orqali, ularning bilim darajasini oshiradilar. Bu bosqichda oʻquvchilar atamalarni tushunish va ularga asoslangan aniq qoidalar, tushunchalar va faktlarni bilish qobiliyatiga ega boʻlishadi. Ushbu daraja oʻquvchilarga asosiy bilimlarni egallashda yordam beradi va kelajakdagi oʻqish jarayonlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Oʻquvchilarga har bir badiiy sanʼatning taʼrifini va

uning xususiyatlarini tushuntirish. Masalan, tazod sanʼatining maʼnosi va misollarini keltirish. Oʻquvchilardan sanʼat turlari haqida savollar berish va ularni javob berishga undash. Quyidagi savollarni misol tariqasida keltirish mumkin:

- 1) arabchada nomi “shaxslantirish” maʼnosini beruvchi sanʼat qaysi?
- 2) nasrda ham, nazmda ham uchraydigan, oʻzaro zid tushunchalarni ifodalovchi soʻz yoki iboralarni ishlatishda koʻzga tashlanadigan badiiy sanʼat turi qaysi?
- 3) maʼnosi “bir nazar tashlash” boʻlib, tarixiy va afsonaviy voqea, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qiladi. Bu yerda qaysi badiiy sanʼat haqida gap ketmoqda?

Tushunish. Oʻquvchilar matn (sheʼr, gʻazal, qitʼa, ruboiy) mazmunini, gʻoyasini, muallif koʻzlagan maqsadini tushunishga harakat qiladilar. Oʻqituvchilar,



o‘quvchilarga badiiy san’atlarni tahlil qilish va ularning mazmunini muhokama qilishga yo‘naltirish orqali ularning tushunish darajasini oshirishlari mumkin. Bunda quyidagi topshiriqni misol tariqasida keltirish mumkin:

She’rda qanday g‘oya ilgari surilgan? She’riy san’at tur(lar)ini yuzaga keltirgan kalit so‘zlarni toping va yozing.

Qarasam, beshikdan tobutga qadar,

Birov umr so‘rar, yana birov – zar.

Berganga bittasi ko‘pdir, birodar,

Olganga mingtasi kam ko‘rinadi. [1:14-15]

Qo‘llash. O‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga harakat qiladilar. Qo‘llashda o‘quvchilarning o‘rgangan qonuniyat va nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olishi, tushuncha va tamoyillarni har xil vaziyatlarga tatbiq etishga qodirligi ahamiyat kasb etadi [3:213]. Masalan,

a) baytda qanday she’riy san’at mavjudligini aniqlang, mazmuniga e’tibor bering, uni hozirgi kundagi qaysi maqol bilan qiyoslasa bo‘ladi?

Chun masal bo‘ldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud

Mushk isin yashursa bo‘lmas, bu masal mashhur erur. (Navoiy)

b) ishora qilingan harflar orqali yashiringan so‘zni toping va baytning ma’nosini izohlang. Muallif nima uchun arab harflaridan foydalanganini aniqlashga harakat qiling.

“Ayn” u “shin” u “qof” inga to bo‘ldi ko‘nglum muftalo,

“Dol” u “ro” u “dol” u hajringdin dame ermon judo (Komil Xorazmiy)

Tahlil qilish. O‘quvchilarning butunni ma’lum bo‘laklarga ajrata olishi, ular orasidagi aloqadorlikni ko‘rsatib bera bilishi, dalillar va tekshiruvlar orasidagi farqni ko‘rsatib bera bilishi nazarda tutiladi. O‘quvchilar badiiy san’atlarni tahlil qilish va ularning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga harakat qiladilar. Badiiy san’atlar xilma-xil va rang-barang bo‘lish bilan birga o‘zaro o‘xshash hamda farqli jihatlari ham mavjud. O‘qituvchilar, o‘quvchilarga badiiy san’at turlarini tahlil qilish vazifalarini berish orqali, ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Tafovut va bir xillikni aniqlash uchun topshiriq beriladi. Masalan, namuna sifatida tajnis - iyhom, tashbeh – istiora san’atlarini keltiriladi. O‘quvchi jadvalni to‘ldirganda badiiy san’atlardan olgan bilimlarini eslaydi va ularni taqqoslashni ham o‘rganadi. O‘quvchilar badiiy san’atlarni o‘zaro taqqoslab, ularning o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashlari kerak.



Baholash. O‘quvchi yozma matnning tuzilishi mantig‘ini, mavjud ma‘lumotlar bilan xulosalarning o‘zaro mutanosibligini, mavjud ma‘lumotning ahamiyatligi darajasini baholaydi [3:213]. O‘quvchilar badiiy san‘atlarni baholash va ularning sifatini aniqlashga harakat qiladilar. O‘quvchilarga daftarga biror g‘azal yozib va o‘sha g‘azal muallifining badiiy san‘atlarni qo‘llash mahoratiga doir tezis yozishlari aytiladi. So‘ngra o‘quvchilar o‘z ishlarini sinfdoshlariga taqdim etishlari va bir-birining ishlarini baholashlari uchun vaqt ajratiladi. Baholash mezonlari sifatida ijodkorlik, mavzuni ochish darajasi va uslubiy yondashuv ko‘rib chiqiladi. Bu orqali, ularning baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. O‘quvchilar baholashda o‘z fikrlarini asoslash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishlari kerak.

Yaratish. O‘quvchilar o‘z ijodiy ishlash, tajribalar o‘tkazish hamda yangi faoliyat mazmunini rejalashtirishni talab etadi [4:8]. O‘quvchilarga o‘z ijodiy loyihalarini amalga oshirish vazifalarini berish orqali, ularning yaratuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ulardan mustaqil ravishda g‘azal yoki she‘r yozib ko‘rish va bunda tasviriy vosita va badiiy san‘atlardan foydalanish so‘raladi. Bu jarayonda, o‘quvchilar o‘z ijodiy g‘oyalarini amalga oshirish uchun turli usullar va texnikalardan foydalanishlari kerak.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillarimiz natijasida aytish mumkinki, badiiy san‘atlarni o‘qitishda “Blum taksonomiyasi” muhim ahamiyatga ega bo‘lgan texnologiyalardan biri deya olamiz. Ushbu taksonomiya, o‘quvchilarning bilim darajasini va tafakkur qobiliyatlarini sistemalashtirishga yordam beradi, bu esa o‘qituvchilarga ta‘lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Masalan, “bilish” darajasida o‘quvchilar badiiy san‘atlarning asosiy xususiyatlarini o‘rganish orqali, ularning nazariy asoslarini tushunadilar. “Tushunish” bosqichida esa, o‘quvchilar san‘at asarlarini tahlil qilish va muallifning g‘oyasini tushunishga harakat qiladilar. “Qo‘llash” darajasida esa, o‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga intiladilar, bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, "baholash" va "yaratish" darajalari orqali o‘quvchilar o‘z ijodiy ishlarini baholash va yangi asarlarni yaratish jarayonida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Umuman olganda, Blum taksonomiyasi badiiy san‘atlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini taqdim etadi. O‘qituvchilar ushbu taksonomiyani o‘z darslarida faol ravishda qo‘llash orqali, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va badiiy san‘atlarni o‘rganish jarayonini yanada samarali tashkil etishlari mumkin.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo “Sizni kuylayman” (she’rlar to‘plami). Toshkent – 2007
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tazod>
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma- Toshkent: Shafoat Nur Fayz,2020.
4. Kambarova S.I.2022. “Blum taksonomiyasi — o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning muhim vositasi sifatida”. O‘zbekiston til va madaniyat 2 (4):4-12.
5. Turkiy adabiyot namunalari. Alisher Navoiy [Matn]: nasr/to‘plovchi Mirzo Kenjabek. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.

